

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING ZARURATI

**M. Kenjayev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**D.Ibodullayev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**O.N.Xaitov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish O‘zbekistonga ko‘plab bonuslar olib keladi. Shu bois men sohadagi islohotlarni boshlab bergan 2019-yilgi Strategiyani o‘z vaqtida qabul qilingan juda to‘g‘ri qaror, deb hisoblayman. Hukumat pandemiyadan oldingi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tiklash hamda kelgusi yillarda yanada yuqori o‘sish sur‘atlariga erishishni maqsad qilgan. O‘z navbatida, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko‘paymoqda.

**Kalit so‘zlar:** Yashil iqtisodiyot, ishlab chiqarish, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog‘ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo‘jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg‘armalari.

Globalashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta‘minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o‘tishni talab qilmoqda. Xorijda bu o‘tishni amalga oshiruvchi "yashil o‘sish" iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan barcha a‘zolarining uzoq muddatli (2030- yilgacha) rivojlanishi uchun strategik yo‘nalish sifatida qabul qilingan. Inqirozga qarshi salohiyat nuqtai nazaridan, eko-innovatsiyalar, yashil investitsiya va, umuman, yashil iqtisodiyot, bandlikni oshirish, ishsizlikni yumshatish, iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyatni rag‘batlantirish va retsessiyadan tezroq chiqib ketish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qaroriga 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi ishlab chiqildi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish O‘zbekistonga ko‘plab bonuslar olib keladi. Shu bois men sohadagi islohotlarni boshlab bergan 2019-yilgi Strategiyani o‘z vaqtida qabul qilingan juda to‘g‘ri qaror, deb hisoblayman. Hukumat pandemiyadan oldingi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tiklash

hamda kelgusi yillarda yanada yuqori o'sish sur'atlariga erishishni maqsad qilgan. O'z navbatida, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko'paymoqda. Bunday sharoitda, energetika resurslariga bo'lgan talab ham ortadi. "Yashil iqtisodiyot"ning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi. Bu jihatdan O'zbekistonning salohiyati ancha yuqori. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko'p.

Shuningdek, "yashil energetika" sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O'zbekistonda yaqin o'n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko'paytirish imkonini beradi. O'zbekiston uglevodородenergiyasi – neft, gaz, ko'mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo'qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag'ni talab qiladi. E'tiborlisi, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib mazkur harakatga qo'shildi. Mohiyatan olib qaraganda, ikki yil avval qabul qilingan "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi" yurtimizning "yashil taraqqiyot" sari yuz burganini anglatadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda davlat qaysi moliyaviy instrumentlardan foydalanmoqchi ekanini aniqlab olishdan iborat. Chunki dastlabki bosqichda iqtisodiyot tarmoqlariga yirik investitsiya kiritishga to'g'ri keladi. Biznesda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida ishlash uchun rag'bat va motivatsiya uyg'otilmasa, davlatning barcha sa'y-harakatlari zoye ketadi. Odatda korxonalar va tashkilotlar, aholining turli qatlamlariga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida uglerod sarfini kamaytirish, "yashil texnologiyalar"ni qo'llash va tegishli asbob-uskunalar xarid qilish uchun imtiyozli yoki foizsiz kreditlar, subsidiya hamda grantlar, soliq imtiyozlari taqdim etiladi. O'z nabatida, bunga bank-moliya tizimi ham xayrixohlik ko'rsatishi, banklar BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq biznes-loyihalarga alohida e'tibor qaratishi juda muhim. Yuqorida keltirilgan moliyaviy ko'mak instrumentlari, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlariga tatbiq etilsa maqsadga muvofiqdir. Sababi ular bozor konyukturasidagi har qanday o'zgarishga nihoyatda sezgir bo'lib, yangi raqobat muhitiga moslasha olmasligi mumkin. Yirik korxonalarda esa "himoya yostiqlashi" mavjud. Shu bois ba'zi kompaniyalar "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda qiynalmaydi. Juda bo'lmasa, mahsulot yoki xizmatlar turini diversifikatsiyalash hisobiga ehtimolli risklarni minimallashtirishi mumkin.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda asosiy rol o'ynaydigan iqtisodiyot tarmoqlarini belgilab olish ham dolzarb masala. Fikrimcha, dastlabki bosqichda turizm va xizmat ko'rsatish sohalariga investitsiya kiritganimiz ayni muddao. Bundan tashqari, mashinasozlik, avtomobilsozlik sanoatidan ham katta samarakutsa bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, davlat qaysi sohani, qachon va qanday qilib "yashil iqtisodiyot"ga o'tkazishni hozirdan hal qilib olishi zarur. Yaqin istiqbolda "yashil taraqqiyot"ning intellektual kuchi hisoblangan malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosiga ham to'qnash kelamiz. O'zbekiston oldida shunday mutaxassislarni tayyorlash vazifasi ko'ndalang turibdi. Bu ishga hozirdan kirishmasak, kelgusida xorijiy davlatlarga qaram bo'lgan holda yana katta xarajatga tushaveramiz. "Yashil iqtisodiyot"ga tezroq va nisbatan og'riqsiz o'tish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni jadal rivojlantirish zarur. Chunki bu turdagi iqtisodiyot avvalambor ilm-fan yutuqlari hamda samarali innovatsion yechimlarga tayanadi. Birgina misol, oxirgi o'n yilda dunyo miqyosida quyosh energiyasidan foydalanish xarajatlari 80 foizga qisqardi. Mazkur tendensiya davom etmoqda. Chunki olimlar, muhandis va texnologlar mavjud uskunalarini takomillashtirish, yangilarini yaratish, tannarxini tushirish bo'yicha tinmay izlanyapti. Bunday tadqiqotlarni O'zbekiston ham olib bormog'i darkor. Toki innovatsion mahsulotlarni hadeb xorijdan eksport qilmay, o'zimizda ishlab chiqaraylik.

Davlat iqtisodiyotida yashil sektor ulushini ko'paytirish uchun tezlashtirilgan amortizatsiya, mulk solig'i yoki daromad solig'ini kamaytirish kabi soliq imtiyozlarini qo'llashi mumkin, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalarni ekologizatsiyalashni amalga oshirish uchun davlat moliya muassasalari tomonidan imtiyozli kreditlar va yashil texnologiyalarga investitsiyalar kiritishi mumkin. Ammo davlat ekologik muvofiqlikni ta'minlash uchun biznes subsidiyalarini taqdim etishi to'g'ri hisoblanmaydi. Uning o'rniga, davlat organlari korxonalarining moliyaviy holatini rag'batlantirishda ekologik omillarga e'tibor qaratilish mezonini o'zida aks ettiruvchi xususiy banklar va sug'urta kompaniyalarini kengaytirishi kerak. Ya'ni, banklar kreditni tasdiqlashdan oldin ekologik ko'rsatkichlar ro'yxatini talab qilishi mumkin, sug'urta kompaniyalari esa ekologik xavflar va ularni kamaytirish choralari bo'yicha identifikatsiya deklaratsiyasini tuzishlari mumkin. Shuningdek, banklar va sug'urta kompaniyalari ekologik samaradorligi yuqori bo'lgan kompaniyalar uchun imtiyozli qulay shartnoma shartlarini taqdim etishi mumkin. "Yashil biznes" amaliyotida korxonalariga axborotlarni tarqatish va dastlabki ishtirokini ta'minlash uchun bevosita subsidiyalar ajratish va bepul texnik yordam ko'rsatish ancha samara beradi. Biroq, hozirgi kunda ko'plab davlatlarning "yashil amaliyotlar"ni joriy etish va rag'batlantirish uchun moliyalashtirish bo'yicha qonuniy me'yorlari yetarli emas, shunga ko'ra, yashil iqtisodiy tizimga bosqichma-bosqich o'tishda korxonalariga texnik yordam ko'rsatish uchun moliyaviy ajratmalar korxonalarining uzoq muddatli eko-iqtisodiy barqarorligiga yordam beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. "Yashil iqtisodiyot", asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o'sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta'minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyotga" o'tish iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Ammo butun jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylik xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to'plagan, o'z qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan vaqtda jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda ekologik yo'naltirilgan model tanlanmas ekan, globallashtirish sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo'q bo'lib ketishgacha borish xavfi yuzaga keladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3